



CHALLENGING ISSUES IN ENSURING THE NATIONAL SECURITY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sitora Latipova

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: sitoralatipova98@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: national security, national security concept, security strategies, innovation, technology, state interests, "water for land".

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: This article explores contemporary models aimed at enhancing the national security system of the Republic of Uzbekistan. It delves into the primary aspects of strategies, mechanisms, and tools utilized to ensure stability and safeguard the state's interests. Additionally, it enumerates potential threats to the national security system of the Republic of Uzbekistan, along with measures to mitigate them.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Sitora Latipova

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sitoralatipova98@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy xavfsizlik, milliy xavfsizlik konsepsiysi, xavfsizlik strategiyalari, innovatsiyalar, texnologiya, davlat manfaatlari, "yer evaziga suv".

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida milliy xavfsizlik tizimini takomillashtirishning zamonaviy modellarini keltiriladi. Barqarorlikni ta'minlash va davlat manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qo'llaniladigan strategiyalar, mexanizmlar va vositalarning asosiy jihatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik tizimiga rahna soluvchi ehtimoliy xatarlar va ularga qarshi kurahsish bo'yicha choratadbirlar sanab o'tiladi.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ситора Латипова

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: sitoralatipova98@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальная безопасность, концепция национальной безопасности, стратегии безопасности, инновации, технологии, государственные интересы, «вода за землю».

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные модели совершенствования системы национальной безопасности Республики Узбекистан. Обсуждаются основные аспекты стратегий, механизмов и инструментов, применяемых для обеспечения стабильности и защиты интересов государства. Также перечислены потенциальные угрозы системе национальной безопасности Республики Узбекистан и меры по их преодолению.

KIRISH

Milliy xavfsizlik tizimi barqarorlikni, fuqarolar va mamlakat manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydigan davlat siyosatining asosiy elementlaridan biridir. Zamonaviy chaqiriq va tahdidlar sharoitida xavfsizlik strategiyalari va mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirish va yangi sharoitlarga moslashtirish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy mavqega ega davlat sifatida milliy xavfsizlik tizimini ham faol rivojlantirmoqda, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etmoqda. Ushbu maqolada biz O'zbekistonda milliy xavfsizlikni ta'minlashda qo'llanilayotgan zamonaviy modellar va strategiyalarni ko'rib chiqamiz, shuningdek, ushbu tizimni yanada rivojlantirishning asosiy jihatlari va yo'naliшhalarini belgilaymiz.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat xalqi birligi va hamjihatligi asosida milliy xavfsizlikni ta'minlash muhimligi ta'kidlab, ushbu sohadagi islohotlarni jadal oshirmoqda. Joriy yilning 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta'kidlandi.

Yig‘ilishda, shuningdek, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta’minlash milliy xavfsizlik sohasidagi muhim vazifa bo‘lib qolishiga urg‘u berildi.

Bu borada Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish organlarini raqamlashtirishni jadallashtirish, vazirlik va idoralarning barcha axborot resurslarini yagona xavfsiz axborot makoniga birlashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha Andrey Panarin bu masalaga siyosiy falsafa prizmasidan yondashadi. U o‘z ishida har qanday davlatning milliy xavfsizligi negizida yotgan asosiy tamoyillar va mafkuraviy jihatlarni muhokama qilib o‘tdi.

Stiven Uoltning tadqiqotlari xavfsizlikni tadqiq qilish sohasidagi uyg‘onish davrini ko‘rib chiqadi, bu xavfsizlikni tushunishga yangi yondashuvlarga, jumladan globallashuv va milliy xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa omillarga e’tibor qaratishni o‘z ichiga olgan.

Bugungi kunda dunyoda jiddiy tus olayotganligi, axborot dunyoda geosiyosiy raqobat hamda qudratli davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning siyosiy urushlarining kuchlar hamda tomonidan millatlararo o‘z geoiqtisodiy konfliktlarning manfaatlari avj olishi, bunda ustuvorligini ta’minlash maqsadida turli mafkuraviy xurujlarni yuzaga keltirayotganligining guvohi bo‘lyapmiz.

Shuningdek, diniy mutaassiblashuv va radikallahuv jarayonining keskinlashuvi sharoitida milliy xavfsizlikka ichki va tashki tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni baholash hamda oqibatlarini minimallashtirish yuzasidan samarali yechimlar berish va takliflar ishlab chiqish bevosita tizimli tadqiqotlar natijalariga bog‘lik bo‘lib qolmoqda.

Barchamizga ma’lumki, ayrim davlatlarning dunyo xaritasida qolish-qolmasligi savol ostida qolayotgani, jahondagi qariyb 100 million odam o‘z hayatini saqlash uchun boshqa yurtlarda boshipana izlab yurgani, oziq-ovqat yetishmasligi, energiya resurslari taqchilligi kabi global xavfsizlik muammolari, buning oqibatida yuzaga kelayotgan milliy xavfsizlikning u yoki bu sohasiga jiddiy tahdidlarning saqlanib qolayotganligi yuqoridagi fikrlarning dalili hisoblanadi. Ayniqsa, buzg‘unchi kuchlar tomonidan qo‘llanilayotgan usul va vositalarning shakl-shamoyilini tez o‘zgarish barobarida barcha vazirlik va idoralar tomonidan mazkur tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlari ham takomillashib borishi lozim.

Mazkur mas’uliyat eng avvalo, milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida faoliyat yuritayotgan barcha vazirlik va idoralar zimmasiga tushadi Chunki, milliy xavfsizlik muammolari keng qamrovli bo‘lib, ularni kompleks tarzda mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalangan xolda yechimini topish mumkin.

Milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilar qayd etiladi:

Siyosiy xavfsizlik sohasida:

- aholi orasida diniy mutaassiblashuv va radikallashuv jarayonining keskinlashuvi, ayniqsa yoshlar orasida mazkur holatning jiddiy tus olayotganligi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ekstremistik xarakterdagи tashkilotlar a'zolarining o'rtacha 80 foizini 30 yoshdan oshmagan shaxslar tashkil etadi;

- xalqaro terrorchi guruhlarning faoliyati hamda ichki siyosiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bir qatorda, toliblarga qarshi joriy etilgan sanksiyalar oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik Afg'onistonda barqarorlikka tahdid solayotgan omillardan biri bo'lib qolmoqda. Afg'onistonda yuzaga kelgan mazkur keskin gumanitar vaziyat dunyo kuch markazlari uchun mintaqqa davlatlariga, xususan O'zbekistonga ta'sir o'tkazish vositalaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik sohasida:

- mamlakatimiz suv muammolari bo'yicha 164 ta davlat orasida 25-o'rinni egallab turibdi. Sug'orish mavsumida suv tanqisligi sababli, qishloq xo'jaligida hosildorlik tushib ketyapti, aholi o'rtasida norozichilik kayfiyati ortib bormoqda. "Kushtepa" kanali loyihasi mintaqamiz suv xavfsizligiga eng katta tahdidga aylandi;

- qishloq xo'jaligi sohasida xorijiy texnologik qaramlik darajasi yuqori. Misol tariqasida, urug'chilik va naslchilik yo'nalishlarida milliy texnologik ishlammalar yetarli emas, buning oqibatida oziq-ovqat xavfsizligiga kelajakda jiddiy tahdidlar yuzaga keladi;

- Markaziy bank raqamli valyutani amaliyatga kiritish masalasi yuzasidan aniq yondashuv mavjud emas, uni joriy etish bilan bog'lik xavf tulik tadqiq etilmagan. Bugungi kunda dunyoning 120 ta davlatida mazkur masala chuqur o'rganilyapti, ular tomonidan tegishli konseptual hujjatlar qabul qilingan;

- O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyotning hajmi YAIMga nisbatan 62%, ya'ni 45 mlrd atrofida baholanmoqda. Davlat tomonidan ko'rilgan bir qator tizimli chora-tadbirlarga qaramay, ushbu tendensiyada sezilarli ijobiy o'zgarishlar sezilmayapti.

Ijtimoiy sohada:

- O'zbekiston jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, xususan saylov yoki referendum natijalari yuzasidan prognozlarni chop etish (e'lon qilish)

- tartibi buzilganligi uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lishiga qaramay, bunday tartibning o'zi ishlab chiqilmagan;

- demografik muammolar, xususan aholi sonining doimiy o'sishi va qarishi jamiyatga ta'sir qilib, keksalar sonining ko'payishi va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda.

- mehnat bozoriga kiruvchilar orasida malakasizlik muammosi yuqori (50%),
- shuningdek, mutaxassislik bo'yicha kasbiy sifatlar darajasiga baho beruvchi yagona mezonlar tizimi shakllantirilmagan.

Axborot-g'oyaviy xavfsizlikni ta'minlash:

- ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasining ortishi barobarida destruktiv kuchlar tomonidan milliy Internet OAVni moliyalashitirishga, ularni sotib olishga xarakatlar ortib bormoqda;
- milliy axborot makoni diniy yunalishda radikallahib bormoqda;
- internet tarmog'idan tarqatilayotgan axborotlarning okibatida tashki tahdidlar vujudga kelmokda, xususan, Uzbekistonga xorijdan turib axborot xurujlarining tashkil etish, ushu jarayonda xalkaro kiber guruxlar va xorijiy tashkilotlar vakillari birgalikda faoliyat olib borayotganligi kuzatilmokda. Xususan, axborotlar mazmunini ataylab buzib talkin qilish,
- islohotlarning ijobiy natijalari, boshkaruv tizimidagi kamchiliklarni burttirib kursatish, unga nisbatan odamlarda ishonchszliku vujudga keltirishga urinishlar va bu orkali yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilinmoqda.

XULOSA

Mamlakatdagi islohotlatning natijasi qanchalik samaradorlikka erishishi mumkinligi tarmoqlarning hamkorlikdagi izchil faoliyatiga bog'liq. Bunda har bir yo'nalishda muammolarni hal etishda quyidagicha yo'l tutishni ma'qul deb bilamiz.

Siyosiy xavfsizlik sohasida:

Yoshlar orasida axborot diniy radikalizmning vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri – o'z ijtimoiy holatidan konikmasligi va noroziligidir Norozilikni bildirishning bunday uslubi va undan maksad — ularning fikricha, "adolatli", tasavvuridagi "tenglikni", "huquqni" ta'minlashdir.

Shuningdek, aholi turmush sharoiti darajasining pasayishi, ayniqsa, yoshlar qatlaming ba'zi toifalari o'z istiqbolini "ko'ra olmasligi", ishsizlik va ijtimoiy himoyasizlik, o'z ijtimoiy-iktisodiy muammolarini yecha olmaslik xam ular kalbida davlat, hokimiyat va jamiyatga, yon-atrofga nisbatan nafratni vujudga keltirishi mumkin bulgan muxim omil ekanligini inobatga olgan xolda tegishli choralar ko'rishi lozim;

Iqtisodiy xavfsizlik sohasida:

- O'zbekistonda suv taqchilligi va isrofgarchiligi muammosini hal qilishning eng to'g'ri yo'li, bu - suv va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, irrigatsiya tarmoqlarini yopiq tizimga o'tkazish hisoblanadi va bunda davlat kuchli qo'llab-quvvatlov bo'lishi kerak. Sohada

erkin bozor munosabatlarini o‘rnatish kerak, Bunda, suv uchun tariflarni qayta ko‘rib chiqish orqali suv xo‘jaligiga xususiy sektorni jalb kilish, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini joriy qilish talab etiladi, ya’ni “suv-tovar” tamoyili asosida ishlashni yo‘lga kuyish, ushbu tizimga utishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish;

- oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda qishloq xo‘jaligini texnologik subsidiyalash;
- O‘zbekiston Markaziy bank raqamli valyuta konsepsiyasini ishlab chiqish va ushbu yo‘nalishda chuqur tizimli tadqiqotlar olib borish;
- xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqish.

Ijtimoiy xavfsizlik sohasida:

- jamoatchilik fikrini o‘rganishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda jamoatchilik fikrini o‘rganish vositalari, shakllari,
- jamoatchilik fikrini o‘rganish me’yorini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash kabi huquqiy bo‘shliklarni me’yoriy hujjatlarda aks ettirish,
- demografiya sohasida konseptual xujjatni ishlab chikish, unda ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni rejalashtirish, ishlab chikish xamda amalga oshirishda demografik xavflarni xisobga olish, ushbu yo‘nalishdagi tahdidlarga qarshi tura olishga saloxiyatini oshrishiga e’tibor qaratish;
- milliy malaka tizimini xalqaro me’yor asosida qayta ishlash. Bunda yagona yondashuv asosida shaxsning kvalifikatsion sifatlarini shakllanganlik darajasini baholashga urg‘u qaratish;

Axborot-g‘oyaviy xavfsizlikni ta’minalash:

- milliy xavfsizlikni ta’minalashda sun’iy tafakkurni keng ko‘llash
- imkoniyatlarini o‘rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyati mavjud;
- milliy axborot makoni tobora diniy yo‘nalishda radikallashib borayotganligini inobatga olgan xolda, mazkur yo‘nalishda huquqiy va tashkiliy choralarini ko‘rish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. “O‘zbekiston”. NMIU, -2017. –B.490.
2. Walt, Stephen. The Renaissance of Security Studies // International Studies Quarterly. - 1991. - № 35.
3. Панарин А.С. Философия политики. - М.: Наука, 1994. - С. 5.
4. Национальная безопасность: теория, политика, стратегия. - М.: ВТИ, 2000
5. O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/acts/-3610935>
6. Bobokulov I. I., Umarov X. P. Xavfsizlik asoslari. O’quv qo’llanmasi. – T.: JIDU, 2010. – B.179.

7. Toshbekova M. X. "Problem of Solving Ideological Threats in the Context Globalization" 5 th International emi entrepreneurship social sciences congress june 29-30. 2020/ Gostivar-N-Macedonia. 2020 www.emissc.org
8. Панин В. Н. Международная и региональная безопасность: некоторые теоретико-методологические аспекты исследования. –В.6
9. Mamadjonov, A. B. (2023). ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF" SOFT POWER". Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(03), 272-279.
10. Mamadjonov, A. B. O. G. L. (2021). TURKIYANING XALQARO TASHKILOTLARDAGI O 'RNI VA ROLI: NATO MISOLIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 427-435.
11. Azimov, H. Y. (2022, June). THE ROLE OF THE SYRIAN CRISIS IN ENSURING SECURITY IN THE MIDDLE EAST. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 90-92).
12. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (4 (6)), 92-97.
13. Azimov, H. Y. (2022). Main directions of modern international security approaches. International journal of social science research and review, 5(2), 151-157.
14. Boronov, S. (2022). Internal and external factors of taliban origin. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(02), 15-23.